*Nurmanov Abdinazar Tashbaevich, Karimov Musulmonkul Bakhriddinovich*
PRACTICAL ASPECTS OF PREPARING A FUTURE RUSSIAN LANGUAGE TEACHER FOR TECHNOLOGY AND EFFECTIVE COMMUNICATION TECHNIQUES ........ 343-347

*Abdullayev Dilshod Xamidullo o'g'li*
DEVELOPING FLEXIBILITY AND RESILIENCE IN CHILDREN ........ 348-352

*Khayritdinov Otabek Murotjon ogli*
THE ROLE OF CULTURAL ANTHROPOLOGY AS AN INTEGRATOR IN THE SYSTEM OF HUMANITIES ........ 353-357

*Kalmenov Jalgasbay Sarsenbaevich, Ibadullaeva Zamira Kuanishovna*
PEDAGOGICAL METHOD AND PROFESSIONAL SKILLS IN A MUSIC LESSON ........ 358-361

*Bekchanova Nilufar Boltaboyevna*
FACTORS HELPING TO DEVELOP STUDENTS CREATIVE SKILLS IN NATURAL SCIENCE TEACHING ........ 362-367

*Ibragimova Dildora*
DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL COMPETENCE OF TEACHERS OF TECHNICAL UNIVERSITIES IN THE PROCESS OF LEARNING AND TEACHING ENGLISH FOR SPECIAL PURPOSES ........ 368-371

*Kamalova Dilnavoz Ikhtiyorovna*
THE ROLE OF THE EXCURSION IN TEACHING THE SCIENCES OF PHYSICS AND ASTRONOMY ........ 372-377

*Soyibnazarov Abbosjon Ikromjonovich*
USING SIMULATION PROGRAMS IN SOLVING PHYSICS PROBLEMS ........ 378-383

*Khalisa Faitovna Khismatova*
QUIZ ON COLLOIDAL CHEMISTRY: DEVELOPING LOGICAL THINKING OF STUDENTS ........ 384-389

*Toshboyeva Barnoxon*
PSYCHOLOGICAL AND METHODOLOGICAL CONCEPT OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRIMARY SCHOOL CHILDREN ........ 390-393

*Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna*
LINGUODIDACTIC SIGNIFICANCE OF INTERCULTURAL COMPETENCE ........ 394-399

*Uralova Nurkhan Makhadovna*
IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION ........ 400-404

*Berdieva Aygul Bekmuratovna*
PROVIDING PROFESSIONAL METHODICAL TRAINING OF MATHEMATICS TEACHERS WITH THE HELP OF ELEMENTS OF NON–EUCLIDEAN GEOMETRIES ........ 405-411

*Choriqulov Rustamjon Ibodullo oʻgʻli*
MODERN VIEW OF THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MASTERING INDEPENDENT LEARNING SKILLS IN STUDENTS ........ 412-416

*Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna*
INNOVATION PROCESSES IN HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ........ 417-423

*Burkhiev Olimjon Boboevich*
SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY ........ 424-429

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 4 | Special Issue 3 | 2024
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 05 May 2024
**Accepted:** 10 May 2024
**Published:** 25 May 2024

*Article / Original Paper*

# STATE FINANCIAL - INVESTMENT POLICY AND ACCEPTED ECONOMIC REFORMS IN THE DIGITAL ECONOMY

**Azizkulov Bakhtiyar**
Head of the Department of Business Management and Exact Sciences, SamSU Urgut Branch, Doctor of Philosophy in Economics

**Saifullayev Sanjarbek**
Samarkand State University, Urgut branch, 2nd stage student of banking and auditing

**Abstract**. This article analyzes the state's policy in the economic sphere and recently adopted economic reforms. The article first gives a general understanding of the current economic policy of the state. Then, it is shown how the recently adopted economic reforms are aimed at changes in the current policy environment, fiscal policy and overall economic situation. The article was built on the basis of the author's own thoughts, analysis and comments.

**Key words:** Economic policy, economic reform, financial policy, commercial sectors, international trade, types of reform, financial systems.

# RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA DAVLATNING MOLIYAVIY – INVESTITSION SIYOSATI VA QABUL QILINGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR

**Azizkulov Baxtiyor**
SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va aniq fanlar kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari boʻyicha falsafa doktori

**Sayfullayev Sanjarbek**
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali bank ishi va audit yo’nalishi 2- bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Bu maqolada davlatning iqtisodiy sohasidagi siyosati va so'nggi paytda qabul qilingan iqtisodiy islohotlar tahlil qilingan. Maqolada dastlab, davlatning amaldagi iqtisodiy siyosati haqida umumiy tushuncha berilgan. Keyin esa, so'nggi paytda qanday qabul qilingan iqtisodiy islohotlarning mavjud siyosati muhitidagi o'zgarishlarga, moliyaviy siyosatga va umumiy iqtisodiy holatga o'tkazishiga qaratilgan ta'sirini ko'rsatib berilgan. Maqola muallifning o'z fikrlari, tahlillari va izohlari asosida qurildi.

**Kalit so’zlar:** Iqtisodiy siyosat, iqtisodiy reforma, moliyaviy siyosat, tijorat tarmoqlari, xalqaro savdo, reforma turlari, moliyaviy tizimlar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N18

Bugungi kunda raqamli dunyo bizning vaqtimizni qanday sarflashimizdan, pulni qanday boshqarishimizdan tortib hayotimizning har bir sohasiga kiritilgan.

“Raqamlashtirish”, ya’ni ma’lumotlarni kompyuter tiliga oʻgirish amaliyotining roli inson hayotida tobora dolzarblashib bormoqda. Biz sariq sahifalar kataloglarida emas, balki

qidiruv tizimlarida mahsulot va xizmatlarni qidiradigan raqamli iste’molchilarga aylanmoqdamiz. Endi barcha ma’lumotlar televizor, gazeta va jurnallarni almashtirgan millionlab veb-saytlarda mavjud. Elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar va bloglardan koʻpgina vodamlar bilan aloqa qilish va muhim ma’lumotlarni boʻlishish uchun foydalanamiz.

Hozirda davrning eng muhim oʻzgarishi sodir boʻlmoqda – oflayn rejimdan onlayn rejimga transformatsiya yoki raqamlashtirish jarayoni. Oddiy soʻzlar bilan ta’kidlaganda, raqamlashtirish jarayoni katta hajmdagi ma’lumotlarni (matn, tovush va video) birlik va nollarga, ya’ni kompyuter tushunadigan tilga tarjima qilishni oʻz ichiga oladi. Hozirgi zamonda “didjitalizatsiya” tushunchasi deyarli har bir sohaga chuqur kirib kelishga ulgurdi, bular sirasiga: – davlat xizmatlarini koʻrsatish; – biznes (tadbirkorlik); – ta’lim; – kasbga yoʻnaltirilgan mutaxassisliklar; – bozor va savdo; – bank; – jamiyat; – ishlab chiqarish; – moliya bozori; – iqtisodiyot va boshqa strategik yoʻnalishlar kiradi. Masalan, kasbga yoʻnaltirilgan mutaxassisliklar, zamonaviy terminda “HR” tizimida “raqamlash-tirish jarayoni an’anaviy kasb egalariga qarshi” degan gipoteza ham mavjud. Bu holat kadrlar, ya’ni kasbga yoʻnaltirilgan mutaxassisliklarga tegishli.

Ushbu sohani raqamlilashtirish amaliyotchilarni yollash va oʻqitish yukini kamay-tiradi. Zamonaviy AKT vositalari yordamida mutaxassislar nomzodlar bilan mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va bulutli texnologiyalar (cloud technologies) orqali aloqa qilishlari mumkin. Masalan, suhbatdan oldin nomzod qogʻozda hamma uchun tanish boʻlgan anketani toʻldirmaydi, balki elektron shaklda uni roʻyxatdan oʻtkazadi. Shunday qilib, ish beruvchi tez muddat ichida ma’lumotlarni oladi va ishlov beradi. Mazkur holat, nafaqat davlat boshqaruvi kadrlarini saralash balki har qanday sohada ham kerakli mutaxassislarni tez, qulay va shaffof ravishda tanlab olish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Biroq, zamonaviy AKT vositalaridan faol foydalanmaydigan mutaxassislar uchun ushbu talablar biroz qiyinchilik tugʻdiradi. Boshqa soʻzlar bilan ta’kidlaganda, kadrlarni ishga qabul qilish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda raqamlashtirish jarayoni innovatsion avtomatlashtirilgan tizimlar asosida yoʻlga qoʻyiladi, bunda: – guruhda ishlash metodini oʻrniga video-taqdimotlar; – suhbat jarayonining oʻrniga, psixologik va mutaxassislikka yoʻnaltirilgan kvestlar va keyslar; – maxsus portallar orqali oʻqitish kabi tizimlar joriy etiladi.

Bu kabi kichik islohotlar albatta oʻz natijasini mamlakat iqtisodiyotida ham aks etadi, shu sabab Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol oʻtish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri ekanligini ta’kidlab oʻtdi. Hatto, 2020-yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berilgani ham, Oʻzbekistonda barcha tarmoqlarda raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirishni koʻzda tutadi[2].

2019-yilning oktabr oyida Oʻzbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi platformasiga keng ommaga taqdim etilgan “Oʻzbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi” ham zamonaviy AKT vositalari yordamida mamlakatni bugungi globalizatsiya jarayonida zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanishiga doir qator loyiha va vazifalarni koʻzda tutadi. Masalan, Oʻzbekistonda “Xavfsiz shahar” yagona apparat kompleksini joriy etish masalasi 2017 yildan buyon faol amalga oshirilib kelinayotgan boʻlsa, yuqoridagi konsepsiya doirasida mazkur loyiha innovatsion tartibda “Aqlli shahar” platformasiga transformatsiya qilinishi kutilmoqda[2]. Sanab oʻtilgan islohotlarni amalga oshirishda “Raqamli iqtisodiyotga” oʻtish masalasi dolzarb

ahamiyat kasb etib turar ekan, ushbu yoʻnalishning oʻziga xos xususiyatlarini koʻrib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni 2 ta asosiy tamoyillar asosida tasavvur etish mumkin, ya'ni – samaradorlikni oshirish va "raqamli korxonalarni" yaratish. Samaradorlikni oshirish. Biznesda yoxud tadbirkorlikda ma'lumotlarni raqamlashtirish xarajatlarni kamaytiradi, foydani oshiradi va iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini koʻtariliga olib keladi. Kompaniyalar faoliyati raqamlashtirilgandan soʻng ular oʻz texnologiyalarini iqtisodiyotning turli sohalarida ilgari surishga qodir ekanliklarini anglaydilar. Bu, oʻz navbatida, kamroq harakat talab qiladi, chunki "didjitalizatsiya" toʻsiqlarni yengib oʻtishga va iqtisodiyotning yangi segmentiga kirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot - bu yangi biznes jarayonlar, yangi bozorlar iqtisodiyoti hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish asosida vujudga kelishi va rivojlanishidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, **"Raqamli texnologiyalar, nafaqat, mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi"** Shunga koʻra, "Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir soʻz bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash..."[2] raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yoʻlidagi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Raqamlashtirish va globallashuv bir-biridan ajralmas boʻlib, turli ma'noda chegaralar qanchalik kam boʻlsa, raqamli iqtisodiyot shunchalik tez rivojlanadi va yagona iqtisodiy makonni tashkil etadi, bundan bir-biri uchun ochilgan davlatlar naf koʻradi. Raqamli iqtisodiyot internet, shuningdek mobil va sensor tarmoqlari kabi platformalar orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlarni oʻz ichiga olib, mehnat unumdorligini va kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot va xizmatlar xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini yaratadi [3].

Shu bois, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda zamon talablariga mos yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etgan holda yuqori sifatli mahsulot yaratish va xizmatlar koʻrsatish unumdorligiga erishish, ya'ni innovatsion samaradorlikka erishish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston davlati o'zining iqtisodiy sohasidagi siyosatini amalga oshirayotgan ishlari mamlakatning rivojlanishini va iqtisodiyatini mustahkamlashni maqsad qilgan. O'zbekiston davlatining iqtisodiy siyosati asosan davlat iqtisodiyoti rivojlanishi, innovatsiyalar o'rnatilishi, moliyaviy barqarorlik va jamiyatning umumiy darajada boyitilishi maqsadini o'z oldiga qo'ygan. Asosiy yo'nalishlar orasida istiqbollar, tijorat, tadbirkorlik va moliyaviy soha bo'yicha iqtisodiyotni mustahkamlash keng joy tutadi.

O'zbekiston iqtisodiy sohasida strateji islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu islohotlar iqtisodiyotning diversifikatsiyasi, tijorat muhitining yanada rivojlanishi, korporativ sektor o'sishi, yoshlarning iqtisodiy faoliyati va innovatsiyalar bo'yicha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Tijorat va tadbirkorlik sohasida yirik islohotlar va mudofaa chora-tadbirlari olib borilmoqda. Tarixiy tijorat yo'nalishlariga qo'shimcha qo'yilayotgan e'tibor, O'zbekistonning dunyo bo'ylab integratsiyasi va xalqaro tijoratda sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston davlati moliyaviy barqarorlikni saqlash, inflatsiyani pastga tushirish, valyuta iqtisodiyotini mustahkamlash va investitsiyalarni jalb qilish uchun samarali siyosat olib bormoqda.

Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish faoliyati samaradorligini oshirish, xorijiy investorlarni mamlakatimiz imkoniyatlari va salohiyati to‘g‘risida xabardor qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirish sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni yaxshilash, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston, xalqaro savdo-hamkorlikda qatnashish, o'zaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, regional bloklar bilan hamkorlik qilish va umumiy jahon iqtisodiyoti integratsiyasiga e'tibor berish yo'nalishlariga bo'lgan e'tiborni o'z ichiga olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda infrastruktura tuzilishi va rivojlanishi, transport va logistika tarmoqlarini mustahkamlash, energiya taminoti va iqtisodiy sohadagi boshqa tashkilotlarni yanada rivojlantirishga so’ngi yillarda katta e'tibor berildi.

O'zbekiston Davlatining iqtisodiy siyosati mamlakatni iqtisodiy rivojlanish yo'nalishida mustahkamlash uchun innovatsion, samarali va chuqur o'rganilgan siyosatdir. Bu siyosat, mamlakatning iqtisodiy potentsialini o'rganish, yangi sohalarni rivojlantirish va davlatning umumiy iqtisodiy holatini mustahkamlash maqsadida amalga oshiriladi.

O'zbekiston, iqtisodiy maqsadlarini olish uchun bir qator vosita, siyosat tizimlari va ko'rsatkichlarni qo'llaydi. O'zbekistonning iqtisodiy maqsadlarini olish uchun asosiy vositalardan biri iqtisodiy islohotlardir. Davlat tashkiloti iqtisodiy sohasida qabul qilingan qonunlar, investitsiya va korporativ boshqaruvni mustahkamlash yo'nalishlarida samarali ishl beradi. Yuridik tizimlar, investorlarni jalb qilish va tadbirkorlikni oshirish uchun noyob ahamiyatga ega.

Davlatning iqtisodiy maqsadlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun yuridik muhiti sodda, barqaror va isloh qilinishi zarur. Moliyaviy tizimlar, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va moliyaviy stabilitetni saqlash uchun muhimdir. Narxlar, inflatsiya va moliyaviy ko'rsatkichlar davlatning iqtisodiy sohasidagi tahlillarida yirik ahamiyatga ega bo'ladi. Tijorat tarmoqlari, mamlakatning iqtisodiyotini mustahkamlash va tadbirkorlar uchun xalqaro savdo tarmoqlariga ulanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro savdo, O'zbekistonning sanoat mahsulotlarini dunyo bo'ylab sotish va xarid qilish imkoniyatini oshiradi. Shuningdek, tadbirkorlar uchun xalqaro tijorat bo'yicha qo'llaniladigan qo'llanmalar va imtiyozlar beradi. Korporativ boshqaruv tizimi, tadbirkorlik sektoriga samarali boshqaruv tashkil etish va tadbirkorlar bilan hissa-kushishni kuchaytirish uchun muhimdir.

Tadbirkorlar va korporatsiyalar o'rtasidagi islohotlar, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni olib borish va moliyaviy faoliyatni rivojlantirishda korporativ boshqaruvning o'ziga xos o'rni bor. Iqtisodiy sohada yirik ma'lumotlar va tahlilar tizimlari, davlatning iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish, strategik qarorlar qabul qilish va xalqaro tijoratdagi pozitsiyasini aniqlashda yordam beradi.

Davlatning tadbirkorlar va moliyaviy tizimlar uchun samarali kreditlash shakllari o'rganilishi va amalga oshirilishi, iqtisodiy sohadagi tadbirkorlar uchun moliya resurslarini olishni osonlashtiradi. O'zbekiston iqtisodiy maqsadlarini olishda muvaffaqiyat qilish uchun

yuqorida keltirilgan vositalar, siyosat tizimlari va ko'rsatkichlar birgalikda ishlab chiqilishi, sodda foydalanilishi va rivojlanishi kerak.

O'zbekiston davlatida amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy sohaning modernizatsiyasiga, iqtisodiy diversifikatsiyaga, investitsiyalarni jalb qilishga va tadbirkorlik muhitini o'zgartirishga yo'naltirilgan. Bu islohotlar o'zlarini moliyaviy sohadagi o'zgarishlarga olib kelib, ularga samarali hisoblash uchun bir nechta tashkilotlar, moliyaviy tizimlar va boshqa vositalar qo'llanilgan.

Islohotlar turlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari:

- Prezident farmonlari, iqtisodiy sohadagi samarali o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyatga ega.
- Moliyaviy sohaning keyinchalik o'zgarishi, investitsiya jalb qilish, yangi sohalar tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini kuchaytirish va korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishlarida prezident farmonlariga muvofiq amalga oshiriladi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari:

- Oliy Majlisning qonunlari tadbirkorlik sohasidagi islohotlarni o'z ichiga oladi. Korporativ boshqaruv, investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy sohada ko'p partiyalilikni yaratish, yangi tashkilotlarni o'rnatish va qo'shimcha hamkorlik shartlari bo'yicha qonunlar qabul qilinadi.

3. Investitsiy va qonunlar:

- Investitsiya qonunlar, mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy sohani rivojlantirish yo'nalishida keng qamrovli tadbirlarni amalga oshirishga oid muvaffaqiyatli qonunlar kiritishda ishlatiladi.
- Investitsiya qabul qilish, investorlarni himoya qilish, tadbirkorlik uchun moliyaviy shartlar yaratish va boshqa yirik iqtisodiy sohalar bo'yicha qonunlar, investitsiya yo'lida qatnashuvchilar uchun afzalliklar va kafolatlar taqdim etishda rol o'ynaydi.

O'zbekiston davlatining islohotlari, moliyaviy sohadagi o'zgarishlarga olib kelib, ularga samarali hisoblash uchun rivojlanayotgan korxona, tashkilotlar, moliyaviy tizimlar va banklar orqali keng jihatdan ochilgan. Bu o'zgarishlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlashda va inqiroz vaqtni olg'a boshlashda muvaffaqiyatli bo'lishidir.

Moliyaviy siyosat va iqtisodiy islohotlar o'zaro aloqador va mosligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan bir nechta sabablarni o'z ichiga oladi:

- Moliyaviy siyosat va iqtisodiy islohotlar, davlatning iqtisodiy sohasidagi boshqa yo'nalishlari bilan bir qatorda qo'llanilgan bo'lishi lozim.
- Moliyaviy siyosat, iqtisodiy tuzilish va islohotlar bir-biriga mos kelishi, strategik maqsadlarni olishda yordam bera oladi.
- Moliyaviy siyosat, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish va iqtisodiy tarmoqni mustahkamlashda o'ziga xos rolni o'ynaydi.
- Tadbirkorlik va iqtisodiy sohaning o'zgarishlarga olib kelishi, moliyaviy siyosatning o'z ichiga oladi va o'sishini ta'minlaydi.
- Moliyaviy siyosat, mamlakatga investitsiyalarni jalb qilishda muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalar mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida katta rolni o'ynaydi.

- Iqtisodiy islohotlar, moliyaviy siyosat va investitsiyalar o'zaro mos kelishda davlatning qo'llab-quvvatlash tizimi, shartnomalar, va soliq qonunlari muvofiqligi juda muhimdir.
- Moliyaviy siyosat va iqtisodiy islohotlar, moliyaviy stabilitetni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy tizimlardagi islohlar va islohotlar orqali davlat, moliyaviy sohada barqarorlikni saqlaydi va investorlarga ishonch yaratadi.
- Moliyaviy siyosat va islohotlar, tadbirkorlik sohasidagi qo'llab-quvvatni ta'minlashda muhimdir. Shuningdek, soliq va moliyaviy tartibni yaxshi boshqarish, tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratish va innovatsiyalarni olib borishda moliyaviy siyosat o'z rolni o'ynaydi.
- Islohotlar o'tkazilgandan so'ng moliyaviy ko'rsatkichlar va natijalar monitoring qilinishi muhimdir. Bu esa, moliyaviy siyosat va islohotlar o'rtasidagi aloqadorlikni, samarali ishlovchi miqdorni va qo'llaniladigan tadbirlarni identifikatsiya qilishda yordam beradi.
- Moliyaviy siyosat, iqtisodiy islohotlar, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish o'zaro ko'p tarmoqli aloqalarga ega bo'lishi lozim. Bunday aloqalar o'z sohasidagi yangiliklar va yangi tadbirlar bilan tanishish, o'zgarishlarga tez va samarali ta'sir ko'rsatish uchun zarurdir.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy siyosat va iqtisodiy islohotlar o'zaro mosligini ta'minlashda, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida va davlatning barcha sohalarini samarali boshqarishida bir-biriga qo'llab-quvvat qilishi kerak. Bu holatda, davlat iqtisodiy sohasidagi muammolarini chuqur tahlil qilishi, islohotlarni o'z vaqtida va e'tiborli boshqarishi juda muhimdir.

O'ylaymizki hozirda O'zbekiston davlati tomonidan o'tkazilgan islohotlar natijalarini o'rganishda birinchi bo'lib, real iqtisodiy ko'rsatkichlar, masalan, miqdoriy iqtisodiy o'sish, korrupsiyaga qarshi kurash, xususiy sektordagi rivojlanish kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilib kelinmoqda. Sanoat sohasidagi islohotlar natijasida, o'zbek iqtisodiyoti sanoat tarmoqlarining o'sishi va yangi texnologiyalarni o'rganish yo'nalishidagi ko'rsatkichlar boyicha o'zgarishlar ko'zlanganligi hammamizga ma'lumdir. Lekin, o'tkazilgan islohotlar бўлишига қарамасдан 2023-yilda O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 16 foizga kamaydi.



Islohotlar moliyaviy sohadagi o'zgarishlarga olib kelishi natijasida, davlat iqtisodiy sohasidagi moliyaviy stabilizatsiya va samarali boshqaruv tizimi yaratilganligi mustaqil fikr bildirishda muhim rolni o'ynaydi.

Ishsizlik darajasining kamayishi, yangi ish o'rinlari yaratish va kasb-hunar ta'limining rivojlantirilishiga qaratilgan e'tibor mustaqil fikr bildirishda muhimdir. Islohotlar natijasida, o'zbek iqtisodiyoti o'zaro savdo tarmoqlarini rivojlantirib, xalqaro hamkorlikni oshirishga yo'naltirilganligi kelib chiqadi. Bu hamkorlik orqali xalqaro savdo va investitsiyalarni jalb qilish juda muhim hisoblanadi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Sh.M Mirziyoyev "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish-ning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha - Harakatlar strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020.
3. Mirzayev K.Zh., Azizkulov B.X. Priorities for improving software efficiency in the digital economy. Psychology and education (2021) 58(2): 5866-5873 ISSN: 00333077 5866 www.psychologyandeducation.net.
4. Abdukarimov A., Rashidov A. Ma'lumotlar bazalarining–biznesni tashil etish va samaradorligini oshirishdagi roli //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T.
5. Rashidov A. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Arxiv nauchnыx issledovaniy. – 2022.
6. Rashidov U., Rashidov A. Iqtisodiyotni tartibga solishda notarif usullarining orni va ahamiyati //Voprosы usileniya pozitsiy Uzbekistana v mejdunarodnoy torgovle i optimizatsii yego integratsii v mirovoy rыnok v usloviyax globalnoy transformatsii. – 2021. – T.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).